


**ISTE'MOL BOZORI**


(2019-yil yanvar- noyabr oylari)

Viloyat bo'yicha joriy yilning yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi 2333,2 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 6,1 %ga o'sdi. Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi 125,7 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 132,6%), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining tovar aylanmasi 2207,5 mlrd. so'mni (o'sish sur'ati 4,9 %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi 225,2 mlrd. so'mni (o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,1 % ga o'sgan) tashkil etdi.

**Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi hajmi (mlrd.so'm)**

Chakana savdo tovar aylanmasida katta hajmga ega bo'lgan Guliston shahri (850,6 mlrd.so'm), Sirdaryo tumani (399,8 mlrd.so'm), Yangiyer shahri (226,9 mlrd.so'm), Mirzaobod tumani (221,7 mlrd.so'm), ijobiy tasirini ko'rsatmoqda.


### Chakana savdo tovar aylanmasining o'sish sur'atlari, (%)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 32,6 % ga o'sdi va 125,7 mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining 5,4 % ulushiga to'g'ri keladi.


Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra 2207,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2018-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 4,9 % ga o'sdi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 94,6 % ga teng kelmoqda.

### Chakana savdo tovar aylanmasi yanvar-noyabr oylari yillar kesimida ulishi, (%)da



Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi 2015-yil yanvar-noyabr oylari 88,7 % ni tashkil qilgan bo'lsa 2019-yilga kelib kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulishi 94,6 % ni tashkil qildi.

**Chakana savdo aylanmasida  
yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushi, (%)**




Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi bo'yicha Xovos t (99,4 %), Shirin sh (99,1 %), va Boyovut (98,4%) tumani yetakchilik qilmoqda.

Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi 5,4 % ni tashkil etib, eng katta ulush Yangiyer shahri (9,0 %), Guliston shahrida (7,7 %) va Sirdaryo tumani (4,9 %) kuzatildi.

**Chakana savdo aylanmasi va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari  
tovar aylanmasidagi hajmi**

	Chakana savdo aylanmasi (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	2333,2	106,1	2207,5	104,9
Guliston sh.	850,6	106,5	785,6	104,7
Shirin sh	34,6	104,0	34,3	104,6
Yangiyer sh	226,9	107,9	206,5	103,9
tumanlar:				
Boyovut	120,5	101,2	118,6	103,9
Guliston	90,7	106,7	88,3	104,8
Mirzaobod	221,7	110,7	214,4	109,2
Oqoltin	119,9	105,4	117,4	104,0
Sardoba	100,9	105,0	98,6	103,3
Sayxunobod	79,2	101,0	75,8	106,1
Sirdaryo	399,8	105,6	380,1	104,7
Xovos	88,4	103,4	87,9	103,8

**Tuman va shaharlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining viloyat chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, yanvar-noyabr oylari (%)da.**



2019-yil yanvar-noyabr oylarida chakana savdo tovar aylanmasi viloyat bo'yicha aholi jon boshiga 2791,6 ming so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 4,2 % ga ko'paygan. Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 2019-yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilga nisbatan o'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (9494,4 ming so'm), Yangiyer shahri (5300,7 ming so'm) va Sirdaryo tumanida (3158,0 ming so'm) kuzatildi.

Shuningdek, aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi bo'yicha eng kam ko'rsatkichlar Xovos tumanida (937,7 ming.so'm), Boyovut tumani (941,2 ming.so'm) va Sayxunobod tumanida (1038,4 ming so'm) qayd etilgan. Ushbu ko'rsatkich viloyat hududlari kesimida quyidagicha ko'rinish olgan:

## Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

	Ming. so'm	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	<b>2791,6</b>	<b>104,2</b>
Guliston sh.	9494,4	105,2
Shirin sh	1859,9	103,4
Yangiyer sh	5300,7	105,6
tumanlar:		
Boyovut	941,2	99,5
Guliston	1271,5	104,0
Mirzaobod	3083,4	108,1
Oqoltin	2336,6	103,5
Sardoba	1549,4	103,1
Sayxunobod	1038,4	99,4
Sirdaryo	3158,0	103,9
Xovos	937,7	101,5


Jumladan, 2019-yilning yanvar-noyabr oylari chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 2,1 %ni tashkil etib, 48,2 mlrd. so'mga yetdi yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,4 % o'sishga erishildi. Bunda jami savdo aylanmasining 100,0 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ulushiga to'g'ri kelmoqda.

**SIRDARYO VILOYATINING  
ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI**  
(2019-yil yanvar-noyabr oylari)

Yanvar-noyabr oylari viloyat bo'yicha ulgurji savdo tovar aylanmasi 1256,1 mlrd. so'mni tashkil qildi. 2018-yilning shu davriga nisbatan 0,9 %ga kamaydi.

Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra 841,1 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,4 %ga o'sdi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 66,9 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqoslaganda, Yangiyer shahrida (100,0 %), Shirin shahrida (99,6 %) va Sirdaryo tumanida (89,2 %) yuqori bo'lgan.

**Yirik korxonalar va kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining  
ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi, (%)**



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari


■ Yirik korxonalar

Ulgurji savdo aylanmasining tarkibida yirik korxonalar 2019-yil yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, 415,0 mlrd. so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 11,7 %ga kamaydi. Ushbu sektorning umumiy ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi esa 33,0 %ni tashkil qilmoqda. Bu ko'rsatkich boshqa tuman va shaharlar bilan taqoslaganda, Sardoba tumanida (98,0 %), Boyovut tumanida (92,6 %) va Xovos tumanida (92,4 %) yuqori bo'lgan.

### Hududlar kesimida ulgurji savdo hajmi

	Jami (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Yirik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da	Kichik korxonalar (mlrd.so'm)	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da
<b>Sirdaryo viloyati</b>	1256,1	99,1	415,0	88,3	841,1	105,4
Guliston sh.	432,2	98,1	36,1	56,2	396,1	105,2
Shirin sh	0,6	104,4	-	42,8	0,6	105,0
Yangiyer sh tumanlar:	25,6	105,1	-	-	25,6	105,1
Boyovut	88,9	77,1	82,4	75,5	6,6	105,6
Guliston	32,2	103,4	20,5	103,0	11,6	104,0
Mirzaobod	84,4	113,3	21,0	140,8	63,4	106,4
Oqoltin	26,4	95,2	20,9	93,1	5,5	104,0
Sardoba	67,4	80,7	66,0	80,4	1,4	105,3
Sayxunobod	147,4	105,5	102,0	106,2	45,3	103,9
Sirdaryo	316,8	106,2	34,2	108,9	282,6	105,8
Xovos	34,3	106,7	31,9	106,7	2,4	106,3

### Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasining ulishi, (%)



Ulgurji savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida (34,5 %), Sirdaryo tumanida (25,2 %), Sayhunobod tumanida (11,7 %) qayd etildi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi

bo'limi

Tel.:71-230-86-34